

Ernazarov Firdavs Norbobo o`g`li

*SHahrisabz davlat pedagogika instituti tarix yo`nalishi 1- bosqich
talabasi.*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning ilk o`rta asrlardagi davlatchilik tarixining asosiy bo`g`inlaridan biri bo`lgan Turk xoqonligining tashkil topishi, va kelib chiqishi qanday bulgani va u haqida ko`plab ma`lumotlar aks etgan tarixiy manbalar haqida so`z boradi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье говорится о становлении и происхождении Турецкого ханства, которое является одним из основных звеньев истории государственности в Средней Азии в раннем средневековье, и об исторических источниках, содержащих много сведений о нем.

ANNOTATION: This article talks about the establishment and origin of the Turkish khanate, which is one of the main links in the history of statehood in Central Asia in the early Middle Ages, and the historical sources that contain a lot of information about it.

Kalit so`zlar: Turk xoqonligi, Ona bo`ri, Besh yuz xonadon, Ashina, Oltoy, Jujan, Bumin, Xitoy

Kirish. Avvalo ta`kidlash lozimki, manbalar va adabiotlarda Turk xoqonligining kelib chiqishi va o`z davrida dunyodagi eng yirik davlatlardan biriga aylanishi .Tuk xoqonligini asosiy muhim ishlaridan biri ular doim xarbiy qurollar ishlab chiqarishda boshqa xalqlarga nisbatan ustunroq bulganligi haqida aytib o`tilgan. Faxridin Xasanov ning Turon Xalqlari Xarbiy San`ati kitobida , ham Turk xalqi butun bir Turk xoqonligi darajasiga kelguniga qadar boshidan utkazgan qiyinchiliklar haqida va Turklar o`zlarini kelib chiqishini qaysi hayvonlarga bog`lashi haqida ham aytib o`tgan.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Adabiyotlar tahlil va metodologiya:

Markaziy Osiyo xalqlari uchun qadimdan harakterli bulgan o'z shajarasini bilish va urganish. SHunisi qiziqki ularni kupchiligi u yoki bu hayvoni urug'larining asoschisi deb atashgan. Misol qilib oladigan bulsam : tebitliklar uz ajdodlarini „erkak maymun”, mug'ullar esa „ko'lrang bo'ri” , turkey ellatlar – xunnu shahzodasi va ona bo'rini hisoblashgan. Mening fikrimcha usha davrda yashab o'tgan har bir xalq avlodlari tomondan shunday rivoyatlar orqali uzlarini kuchli va janglarda uzlarini yirtqich bo`ri kabi hisoblashishni xohlashgan. Shu tufayli ham VI asrga kelib Markaziy osiyo xududidan olisda, Olttoyda mamlakatimiz tarixida muhim rol o`ynagan davlat birlashmasi Turk xoqonligi 551-744 shaklangan.[1]

Toba qabilalari Shimoliy xitoyni zabit etishlarida ulardan mag`lub bulgan qabilalar orasida “Ashinaning besh yuz xonadoni” xam bor edi. Besh yuz xonodon majoziy suz bulib “Oz kam sonli ” ma'nolarda ishlatilgan. Mening fikrimcha Ashinaliklar kichik bir kuchmanchi xalqlardan bulib , ular asosan qurol taylorlash bilan mashg`ul bulganlar. Va ular qayerga kuchib borishsa ham tovon sifatida qurol yasab berishgan, shu sababli ularga kuchib borgan joyining axolisi emas balki boshqa xalqlar tomonidan bosqinchiliklar bulib turgan. Chunki boshqa xalqlarga nisbatan , ashinaliklar qurolar yasashda moxir bulganlar.[2]

Manashu “ Besh yuz xonadon ” xunullar va syanbilar IV asrda Xitoydan tortib olingan Shyanviysining g`arbiy qismida yashovchi “Qurama urug'lar” dan vujudga kelgan edi. Ashina qavmi Xayse Ordosning g`arbidagi viloyat, Xuanxening burilish yeri va Nanshan oralig'i xokimi bulgan xunullarni yengib Xaysini Vey imperiyasiga qushib olgach, Ashina knyazi besh yuz xonadon bilan birgalikda yurtiga qochgan va Oltoy tog`larining janubiy tomoniga joylashib, jujanlar uchun temir ishlab chiqara boshlagan. Mening fikrimcha Qadimgi turklarning kelib chiqishi xaqidagi bu naqlarda xech qanday afsonaviy tomoni yuq. Chunki bu Ashina kata-katta syanbi va xunu va shu kabi knyazliklar bilan xar doim xam chiqisha olmagan . Bu Ashina urug`i kichik bir xarbiy qushindan iborat bulgan bulishi mumkun chunki doim kata janglar bulgan vaqtida kichik xarbiy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qisimi bilan joylarini uzgartirib turishganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu halqni biz kelib chiqishida buyuk bir davlat emas balki kichik bir kuchmanchi xalq bulgan deb tushunishimiz mumkun . Keyinchalik esa kichik-kichik janglarda qatnashib g`alabalar qilgandan sung bora – bora buyuk bir Turk xonligini tashkil etgan.

Xitoyliklar Ashina xonlari fuqarolarini tuk-yu deb atagan. P.Pelo bu atamani “turk-yut”ya’ni turklar deb biroq kuplikni anglatuvchi suffiks turkiycha emas, mo`g`ilcha deb tug`ri ochib bergen. Barcha siyosiy terminlar qadimgi turkiy tilda mo`g`ilcha kuplik sonda yasalgan . Mening fikrimcha bu suzlar avlodan-avlodga va bizga ham ularni turkey til muhitiga chetdan kiritilgan deb uylashimizga uchun imkon beradi va shu bilan birga Turkiylarni mo`gilar dan kelib chiqan deb ham qaragan bulishi mumkun chunki Turk suzi kuplik va kuchli ma’nosini bergen va biz bilamizki qadimda ham mo`g`ilar qushini kata bulgan.[3]

Turk suzining ma’nosи kuchli , mustahkam deganidir. A.N Kononovning fikricha , bu yig`ma nom bulib, keyinchalik qabila birlashmasining etnik nomiga aylangan. Bu birlashmaning dastlabki tili V asrda kelganda , tarix sahnasiga chiqqan paytda qanday bulganligidan qatiy nazar , uning barcha azolariga usha davrdagi qabilalararo til bulgan syanbi, ya’ni qadimgi mo`g`il tili tushunchalari bulgan. Bu til buyruq, bozor, diplomatiya tili edi. Bu til bilan Ashina 439 yili Gobining shimoliy chekasiga kuchib utgan. Ashina suzi turkiyda “Bo`ri”demakdir. Mo`g`ilcha esa Shono “chino” A- Xitoy tilida xurmat ma’nosini bildiruvchi old qushimcha. Demak Ashina “oliyanob bo`ri” demakdir. Mening fikrimcha bunday nomlarni yurishlar davomida ularga raqib qushinlar tomonidan janglarda bo`ri kabi toki o`lginlaricha jangni davom etirganlari va doim janglarda g`alaba qozonganligi sababli shunday nomlar bilan atashgan bulishi mumkin. Bunga misol qilib aytishim mumkunki VI asrda bo`ri nomi turkey elatlar uchun ulkan axamyatga ega bulgan . Shu davrda turk xoqonligi xam uzining yuksak chuqisiga yetgan davrlardan biri bulgan . Shuning uchun ham bu suz bu xalqa Ashina suzi bilan ishlatilgan.[4]

Turkiylarga qarshi xujum qilishda tavsiya etilgan qullanmada bunday

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

deyilgan : Mana shunday choralarni qo`llash lozim : kuchmanchilarni xaydash va bo`rilarga xujum qilish. Oltindan qilingan bo`ri kallasi turk bayroqlarini bezab turgan, va nihoyat, turkiylarning kelib chiqishi xaqidagi ikki rivoyatdagi asosiy urin birinchi Ona- Ona bo`riga tegishli. Uzaro bir-biridan bir oz farqlanuvchi rivoyatlarga Ashina o`rdasining Ganvsudan kuchishi xaqidagi tarixiy voqeaga xech qanday ishoraning yuqligi xarakterlidir. Mening fikrimcha Ashina ya`ni Turk xoqonligi kelib chiqishi haqida rivoyatlar kipi Olttoyda vujudga kelgan va ehtimol yangi kelgan xalqlarning xam bu rivoyatlarni eshitgandan sung ular ham uz xalqini buyuk qila olishi uchun, yoki jangchilarini ruhlantirish uchun yaratilgan rivoyat bulishi mumkun.[5]

Yana ayrim manbalarda Turk xoqonligi kelib chiqishi haqida shunday deyiladi: VI-asrning II yarmida Turk xoqonligi vujudga kelgunga qadar mintaqada 2 yirik davlat: Eftaliylar va Jujanlar davlati hukm surardi. Turk xoqonligining assoschilari bo`lmish turkiy Ashina qabilasi esa bu paytda Oltoy toglarining janubiy. yon bag`irlarida istiqomat qilar va Jujanlar davlatiga tobe edi. Jujanlar qo`l ostidagi ashina turklari kuchayib 545 y. tele qabilalarini, 551 y. esa jujanlarni yengadilar. Shu tariqa og`aini Bumin va Istami 552 y. Turk xoqonligiga asos soladilar. Bumin o`zini xoqon deb e`lon qiladi. Mening fikrimcha Turk xoqonligi darajasiga yetkuniga qadar bu davlat kichik bir xalq edi , Yuqorida aytib o`tganiday bu xalqning asosiy mashg`uloti qurol yasash bulgan va qurol yasashda moxir bulganligi sababli boshqa xalqlarga doimiy quroll yetkazib turganligi sababli uz jonlarni uzoq vaqt saqlab kelgan. Va qabilalar urtasida urushlar bulib turganda Ashina urug`i quillay vaziyatni kutib qabilalar urtasidagi janglar tuxtagan vaqtida Ashina urug`i ham bu vaziyatdan foydalanib qabilalar ustiga yurish qilgan va sekin-asta uz xududlarini kengaytirib olgan shu bilan birga boshqa yana kichik kuchmanchilarni xam uz qabilasiga qushib barchasini qurollar bilan ta`minlagan va 545-551- yillarda katta –katta Tee qabilasi shu bilan birga Jujanlarni yengandan sung aka-uka Bumin va Istami 552-yilda buyuk bir davlat ya`ni Turk xoqonligiga asos soldilar va Bumin uzini xoqon deb e`lon qildi.

VI -asr o`rtalarida Oltoydagi turkiy qabilalar qo`shti qabilalar bilan o`zaro

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

birlashib „mo‘g‘il davrigacha bo‘lgan eng qudratli davlat“ - Buyuk Turk xoqonligiga asos solgan. Ikki aka-uka, Bumin va Istemni ulkan davlatni boshqarishgan. Bumin hoqonlikning sharqiy qismidagi o‘ziga qaram yerkarni kengaytirgan bir paytda, uning ukasi Istemni davlatning g‘arbiy qismidagi Yettisuv va Sharqiy Turkistonning tutashgan hududlari qabilalarini o‘zaro birlashtirgan. Va shu tariqa yangi yurishlar boshlanib ketgan .[6]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turk xoqonligi yurtimiz tarixida o‘z o‘rniga egadir. Ammo bu davr tarixi manbalar kamligi sababli chuqur o‘rganilmagani uchun bu mavzu kerakli tahlillarni talab qiladi. Bizga ma’lum bulgani shuki Turk xonligi oddiy bir kichik qabiladan buyuk bir Turk xonligi darajasigacha bulgan vaqtida qanday qiyinchiliklarni boshidan utkazgani va janglarda buri kabi taslim bulmay jang oxirigacha kurashib taslim bulmaganini, va o`sha davrda quroll yasash va undan foydalanishda moxir bulganliklari haqida aytib utilgan. Mana hozirgacha biz tarixchilarga Turk xoqonligi haqida surashganda ko‘z oldimizda tarixiy Turkiy sulolarimizdan bulmish Buyuk turk xoqonliga kuz oldimizda gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Faxridin Xasanov . Turon xalqlari xarbiy san’ati 2018
2. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1993. С. 152-153.
3. Буряков Ю.Ф., Грицина А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. Самарканд-Бишкек: ПСАС, 2006.
4. Asadov F. M., Arabskiye istochniki o tyurkax v rannem srednevekovye, Baku, 1993;
5. Ko‘chanov Ye. I., Kochevie gosudarstva ot gunnov do manchjurov, M., 1997;
6. Nasimxon Rahmon, Turk xoqonligi, T., 1993;